



Said Ahmad 1920-yilning 10-iyunida Toshkent shahrining Samarqand darvoza mahallasida tugʻilgan. Uning bolaligi Oybek, Gʻafur Gʻulom singari adiblar davrasida oʻtdi. Tabiatan qiziquvchan, tinib-tinchimas Said Ahmad adabiyotga kirib kelguncha juda koʻp sohalarda oʻzini sinab

koʻrdi: plakatlar yozdi, artist boʻlishga urinib koʻrdi, doktorlik maktabida oʻqidi, qurilish texnikumida tahsil oldi, rassomlik maktabiga qatnadi, mashhur suratkash Pensonga shogird tushdi. U oʻzini adabiyotda topdi. Adib “Oʻzbekiston xalq yozuvchisi” unvoniga sazovor boʻlgan. “Doʻstlik”, “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlangan.



Mening bolaligim

Said Ahmad

Sizning yoshingizda men juda kam uxlardim. Ayniqsa, yoz kechalari charaqlagan osmonga qarab yotardim.

Mana shu miltirab turgan yulduzlarning narigi tomonida qanaqa joylar bor ekan, deb oʻylardim. Tezroq katta boʻla qolsam-u, dunyodagi jami sirlarni bilib ola qolsam, derdim. Samarqand darvoza guzari shundoqqina uyimizdan koʻrinib turardi. Yozi

bilan to'rt-besh marta dorbozlar kelishardi. Ularning o'yinlarini ko'rib, birdan dorboz bo'lgim kelib qoldi. Bog'imizdagi terakka arqon tortib, langar cho'p bilan chiqishini mashq qila boshladim. Yiqilib, qo'lim sindi. Bir oy o'ng qo'lim taxtakachlanib, azob tortganman. Shunda ham tavba qilmay, yana mashq qila boshladim. Yana yiqilib, chap qo'lim ham sindi. Ana shundan keyin dorbozlikdan aynib, rassomlikka qiziqib ketdim.

Bayram arafasida xo'jaliklardan maktabga kelib, albomlar tashlab ketishardi. Darsdan keyin to qorong'i tushguncha shior yozardim. Yangi tashkil bo'lgan muassasalarga nomlari bitilgan lavhalar yozganman. Bu orada arab alifbosi tugatilib, lotin alifbosiga ko'childi. Endi shiorlarni, nomlari bitilgan lavhalarni qaytadan lotin alifbosida yoza boshladim. Har xil suratlar ishlab, gazetaga olib boraman. Ba'zilarini "Rassom Saidahmad asari" deb chiqaradigan bo'lishdi.

Fotosuratkashlikka ishqim tushdi. Fotoapparat sotib oldim. O'zim o'rganib olganimdan keyin "Yangi hayot" maktabida fototo'garak ochib, bolalarni o'rgata boshladim. Gazetalarda "Saidahmad fotosi" chiqa boshladi.

Rassomlik bilan suratkashlik bahona bo'ldi-yu, matbuotga yaqinlashdim. Qo'lda chizgan rasmlarim, fotosuratlarimga aloqador xabarlarni o'zim yoza boshladim. Hamon o'sha paytda olgan qalamimni qo'ldan qo'ymadim. Ko'plab hikoyalar, romanlar,

pyesalar, kinossenariylar yozdim. Nimaiki orzu qilgan bo'lsam, hammasiga erishdim. Mabodo taqdir meni o'sha sakkiz yoshimga qaytarsa, baribir yana xuddi shu ishimni davom ettirardim. Chunki adabiyot va san'at qon-qonimga singib ketgan. O'z kasbimni jon-jonimdan yaxshi ko'raman.



1. Hikoya kimning tilidan aytilgan?
2. Qahramon yoshligidan nimalarga qiziqqan ekan?
3. Asardagi birinchi gapni o'qing. Gapda muallif necha yoshdaligini nazarda tutgan deb o'ylaysiz?
4. Said Ahmad o'zini qaysi sohalarda sinab ko'rgan?
5. Sizning qanday orzularingiz bor?
6. Orzularingiz ro'yobga chiqishi uchun qanday yo'l tutish kerak deb hisoblaysiz?



langar cho'p – dorda muvozanatni saqlash uchun dorboz qo'lda tutadigan yo'g'onroq uzun tayog



- Hikoyani qismlarga bo'ling.
- Muallif qiziqishlari bayon etilgan gaplarni hikoyadan topib o'qing.
- Hikoyadan uning asosiy g'oyasi ochib berilgan qismini topib o'qing.



Hikoyaning shaxsini o'zgartirib, qayta so'zlab bering.